



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

KATTAQO‘RG‘ON UEZDI MUSTAMLAKA DAVRIDA BOSHQARUV TIZIMI (1868–1886-YY.)

Kenjayev Nurolim Jumanazarovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, PhD doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada 1868–1886-yillarda Kattaqo‘rg‘on uezdida amal qilgan mustamlaka boshqaruv tizimi tahlil etiladi. Tadqiqotda Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyoda joriy etilgan harbiy-ma‘muriy boshqaruvning o‘ziga xos jihatlari, uezd boshqaruv tuzilmasi, sud-huquq tizimi hamda mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlari yoritiladi. Shuningdek, Kattaqo‘rg‘on uezdining Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi o‘rni va 1886-yildagi “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”ning boshqaruv tizimiga ta‘siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mustamlaka davridagi ma‘muriy islohotlarning mohiyati va ularning mahalliy jamiyat hayotiga ko‘rsatgan ta‘sirini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Kattaqo‘rg‘on uezdi, mustamlaka boshqaruvi, harbiy-ma‘muriy tizim, Rossiya imperiyasi siyosati, Turkiston general-gubernatorligi, 1868–1886-yillar, 1886-yilgi Nizom, uezd boshlig‘i, volost boshqaruvi, oqsoqollar, sud tizimi, soliq siyosati, yer-suv munosabatlari.

СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ КАТТАКУРГАНСКИМ УЕЗДОМ В КОЛОНИАЛЬНЫЙ ПЕРИОД (1868–1886 ГГ.)

Кенжаев Нурулим Жуманазарович

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова, докторант
(PhD)

Аннотация

В статье анализируется колониальная система управления, действовавшая в Каттакурганском уезде в 1868–1886 годах. В исследовании раскрываются особенности военно-административного управления, введенного Российской империей в Средней Азии, структура уездной администрации, судебно-правовая система, а также полномочия органов местного управления. Кроме того, научно рассматривается место Каттакурганского уезда в составе Туркестанского генерал-губернаторства и влияние «Положения об управлении Туркестанским краем» 1886 года на систему управления. Результаты исследования способствуют раскрытию сущности административных реформ колониального периода и их влияния на жизнь местного общества.

Ключевые слова: Каттакурганский уезд, колониальное управление, военно-административная система, политика Российской империи, Туркестанское генерал-губернаторство, 1868–1886 годы, Положение 1886 года, уездный начальник, волостное управление, аксакалы, судебная система, налоговая политика, земельно-водные отношения.

THE ADMINISTRATIVE SYSTEM OF THE KATTAQO‘RG‘ON DISTRICT DURING THE COLONIAL PERIOD (1868–1886)

Kenjayev Nurolim Jumanazarovich

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, PhD Student

Abstract

The article analyzes the colonial administrative system that functioned in the Kattaqo'rg'on district between 1868 and 1886. It examines the specific features of the military-administrative governance introduced by the Russian Empire in Central Asia, the structure of district administration, the judicial system, and the powers of local governing bodies. The study also provides a scholarly analysis of the position of the Kattaqo'rg'on district within the Turkestan Governor-Generalship and the impact of the 1886 "Regulation on the Administration of the Turkestan Region" on the governance system. The findings contribute to understanding the essence of colonial administrative reforms and their impact on local society.

Keywords: Kattaqo'rg'on district, colonial administration, military-administrative system, Russian imperial policy, Turkestan Governor-Generalship, 1868–1886, 1886 Regulation, district chief, volost administration, aksakals, judicial system, tax policy, land and water relations.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi natijasida hududda tub siyosiy va ma'muriy o'zgarishlar yuz berdi. 1867-yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi imperiyaning mintaqadagi mustamlakachilik siyosatini amalga oshiruvchi asosiy boshqaruv markaziga aylandi. 1868-yilda Samarqand va unga tutash hududlarning egallanishi natijasida yangi ma'muriy birliklar, jumladan Kattaqo'rg'on uyezdi shakllantirildi.

1868–1886-yillar oralig'i Kattaqo'rg'on uezdida mustamlaka boshqaruv tizimining tashkil topishi va huquqiy jihatdan mustahkamlanish davri hisoblanadi. Bu davrda harbiy-ma'muriy boshqaruv usuli joriy etilib, mahalliy boshqaruv organlari imperiya manfaatlariga mos ravishda qayta tuzildi. Natijada an'anaviy siyosiy tuzilma o'rni markazlashgan va qat'iy nazoratga asoslangan ma'muriy tizim egalladi.

Mazkur maqolaning maqsadi Kattaqo'rg'on uezdida 1868–1886-yillarda amal qilgan boshqaruv tizimini, uning tuzilishi, vakolatlari hamda mustamlakachilik siyosatidagi o'rni tarixiy manbalar asosida tahlil qilishdan iboratdir. Shuningdek, o'lkada amalga oshirilgan ma'muriy islohotlarning mohiyati va ularning mahalliy jamiyat hayotiga ta'siri ilmiy jihatdan yoritiladi.

Asosiy qism.

Ma'lumki, 1865 yilda Toshkent shahri Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan bosib olingach, imperiya hukumati oldida bosib olingan mamlakatda boshqaruvni tashkil etish masalasi paydo bo'ldi. Bosqinchilik urushlari davom etayotgan Turkiston o'lkasi imperiyaning boshqa viloyatlaridan farqli ravishda Ichki ishlar vazirligiga emas, Harbiy vazirlikka bo'ysundirildi va to 1917 yilga qadar uning yurituvchi ostida qoldi. Imperiya hukumati Turkistonni dushman hududi deb hisoblagan, uni boshqaradigan ma'muriy apparatga esa unga qarshi kayfiyatdagi aholi o'rtasidagi "harbiy lager" sifatida qaragan.[1]

Zarafshon okrugi Turkiston general-gubernatori tomonidan tayinlanadigan va vazifasidan chetlatiladigan boshliq tomonidan boshqarilgan. Xususan, 1868 yil 29 iyunda okrug boshlig'i etib general-mayor A.K.Abramov tayinlangan edi.[2] U Zarafshon okrugini 1877 yilgacha, ya'ni Farg'ona viloyati harbiy gubernatori etib tayinlangunga qadar boshqargan.

Zarafshon okrugi boshlig'i qo'lida unga birlashtirilgan okrugdagi harbiy-xalq va harbiy boshqaruv bo'yicha barcha ishlar jamlangan bo'lib, u Ettisuv va Sirdaryo viloyatlari harbiy gubernatorlari bilan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan hamda harbiy-xalq boshqaruvi

ishlari bo'yicha bevosita o'lka boshlig'iga bo'ysungan.[3] 1868 yildan keyin okrug hududida joylashtirilgan qo'shinlar jangavor munosabatlarda okrug boshlig'i, qolgan barcha munosabatlarda Sirdaryo viloyati qo'shinlari qo'mondoni yurituvchi ostida bo'lgan.

Zarafshon okrugining boshlig'i viloyatlarning harbiy gubernatorlari bilan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ldi. U general-gubernatorga bevosita bo'ysunar, uning huzurida tashkil etilgan mahkama va amaldorlar orqali topshiriqlarni bajarar edi. Okrugda hech qanday kollegial muassasa bo'lmagan. Mahalliy boshlang'ich ma'muriyatga nisbatan saylov negizi anchayin cheklangan bo'lib, okrug boshlig'i ham sud ishlariga, xazina soliqlari, davlat va jamoatchilik yig'implari, shuningdek, shahar xo'jaligiga nisbatan keng huquqlarga ega bo'lgan deb, aytib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, okrugni ta'sis etishda umumimperiya guberniya boshqaruvi negizlari e'tiborga olinmagan edi.[4]

Zarafshon okrugi boshlig'i harbiy xalq boshqaruvi ishlari bo'yicha o'z huzuridagi devonxona va topshiriqlar uchun xizmatchilar orqali harakat qilgan.[5] Zarafshon okrugi boshlig'ining harbiy-xalq boshqaruvi bo'yicha devonxonasi 1868 yil sentyabrda shakllantirilgan va undagi ishlar doirasi okrug boshlig'i tomonidan belgilab berilgan. SHuningdek, qo'shinlarni boshqarish uchun uning huzurida yo'l devonxonasi bo'lishi ta'minlangan. Ikkala devonxonaning tarkibi va topshiriqlar uchun xizmatchilar soni, ularning ta'minoti shtatlar bilan belgilangan.

E'tiborli jihati shundaki, okrugni boshqarish uchun ishlab chiqilgan "Muvaqqat qoidalar"da mustamlaka ma'muriyat va okrug aholisi o'rtasidagi munosabatlarda asosiy bo'g'in hisoblangan devonxonaning vazifalari va huquqlari ko'rsatilmagan edi. Agar 1868 yilda okrug boshlig'i devonxonasi Farmoyish beruvchi, Xo'jalik va Buxgalteriya bo'limlaridan iborat bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda uning tarkibi va shtatlari general-gubernatorning farmoyishlari bilan bir necha marta o'zgartirilgan bo'lib, devonxonaning ta'minoti qurilish bo'linmasi, sug'orish ishlari mudiri va uning yordamchisi, topshiriqlar uchun ikki ma'mur, shuningdek, ober-taftishchi va shifokorning qo'shimcha ta'minoti bilan yillik 37578 r.ni tashkil etgan, shundan 24650 r. xazina hisobiga, 12928 r. davlat va jamoat mablag'lari hisobidan qoplangan. Ulardan tashqari, devonxonaning shaxsiy ta'minoti uchun xarajatlar 20650 r.ni tashkil etadi. Oxirgi raqamlarni Rossiyaning Evropa qismidagi Gubernatorlarning Devonxonasi ta'minoti bilan solishtiradigan bo'lsak, Zarafshon okrugi boshlig'i Devonxonasi gubernatorlar devonxonasi shtatidan deyarli ikki baravar katta bo'lganligi ma'lum bo'ladi.

Jumladan, okrug boshlig'i devonxonasi shtatlari qurilish bo'linmasini hisobga olmaganda, quyidagilardan iborat bo'lgan: devonxona boshlig'i, ikki bo'linma boshliqlari, buxgalter, Jurnalist, uch ma'mur, tarjimon va okrug boshlig'i adyudanti.[6] Zarafshon okrugi harbiy-xalq boshqaruvi xizmatchilari okrug boshlig'i taqdimi bilan o'lka boshlig'i tomonidan vazifalariga tayinlangan va bo'shatilgan. Okrug boshlig'i yo'qligida yoki betobligida uning vazifasini bo'lim boshliqlaridan kattasi bajargan. Muvaqqat qoidalarda Zarafshon okrugining ma'muriy markazi etib Samarqand shahri etib belgilangan.

Devonxona bo'limlari ish yurituvdagi ishlar esa quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

Farmoyish beruvchi bo'lim okrugning ma'muriy bo'linishi, hukumat qonunchilik hujjatlarini e'lon qilish, ma'muriyatning shaxsiy tarkibi amaldorlarini yuritish, erli mansabdorlarning saylovi bo'yicha hukmlarni ko'rib chiqish, shaxslarni ma'muriy surgunga jo'natish va ularni qaytarish, okrug sarhadlaridagi voqea-hodisalar bo'yicha, xorijliklarni fuqarolikka qabul qilish, xalq sog'ligini saqlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish, statistik ma'lumotlarni to'plash, pochta aloqalarini tashkil etish, - okrugni boshqarish bo'yicha yillik hisobot tuzish, siyosiy yozishmalar va topografik ishlar bo'yicha yozishmalar olib borgan bo'lsa, xo'jalik bo'limi soliq va yig'implarni undirish, mehnat majburiyatlarini yuritish,

yarmarka va bozorlarni ta'sis etish, xalq xo'jaligini rivojlantirishga oid barcha narsalalar, turli ishlab chiqarish va daromadli sohalarni kengaytirish bo'yicha yozishmalar olib borgan.

Buxgalteriya bo'limi esa daromadlar va xarajatlar ro'yxati hamda smetalarini tuzish, mablag'larning to'g'ri saqlanishi va sarflanishini nazorat qilish (kuzatib borish), xizmatchilarning ta'minotini qanoatlantirish, hisob-kitob daftarlari va ipga tortilgan kitoblarni tayyorlash va tarqatish bilan shug'ullangan.[7]

1868 yilda Zarafshon okrugi ma'muriy munosabatlarda ikki: Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlariga bo'lingan edi. Ular o'rtasidagi chegaralar okrug boshlig'i tomonidan belgilangan.[8] T.Saidqulovning arxiv manbalariga tayanib bergan ma'lumotiga ko'ra, Zarafshon okrugi tashkil etilgandan keyin general Abramov raisligida zudlik bilan komissiya tuzildi. Komissiya oldida butun okrug va uning ikki bo'limining aniq chegaralarini aniqlash vazifasi turardi. Ushbu komissiya taqdimnomalariga ko'ra, sobiq Samarqand va Kattaqo'rg'on beklilari hududida ikkita bo'lim tashkil etilgan. Samarqand bo'limi uchta tuman, jumladan, 11 aholi manzilidan, Kattaqo'rg'on bo'limi esa 16 qishloqdan iborat bo'lgan bitta tumandan iborat bo'lgan.[9]

"Muvaqqat qoidalar"ga ko'ra, bo'limlar o'rtasidagi chegara chizig'i ilgari Samarqand va Kattaqo'rg'on beklilari o'rtasida mavjud bo'lgan chegaralar asosida o'tkazilishi lozimligi qayd etilgan. Har bir bo'limda harbiy-xalq va harbiy ishlar bo'yicha boshqaruv bo'lim boshliqlari qo'lida jamlangan. 1868 yil iyunida Samarqand bo'limi boshlig'i etib qo'shin starshinasi Serov, Kattaqo'rg'on bo'limi boshlig'i etib podpolkovnik Karganov tayinlangan edi.[10] Bo'lim boshliqlari harbiy-xalq boshqaruvi va bo'lim hududida joylashgan qo'shnlarga qo'mondonlik qilish bo'yicha Ettisuv va Sirdaryo viloyatlari uezd boshliqlariga teng va okrug boshlig'ining alohida yo'riqnomasi bilan o'zgartiriladigan va to'ldiriladigan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan.[11]

Bo'lim boshliqlari tarkibi shtatlar bilan belgilanadigan bo'lim boshqaruvi orqali harakat qilgan. Bo'lim boshliqlarining boshqaruv joyi Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari etib belgilangan. Bo'lim boshliqlarining katta yordamchilari va bo'lim boshqaruvidagi boshqa ma'murlar ham Ettisuv va Sirdaryo viloyatlari uezd boshqaruvidagi ma'murlarga teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan.

Zarafshon okrugida aholi oqsoqollar tomonidan boshqarilgan oqsoqolliklarga taqsimlangan. Dastlabki yillarda oqsoqolliklar soni va ularning o'lchamlari Buxoro amirligi davridagidek qoldirilgan. Amirlik davrida bo'lganidek, bir nechta oqsoqolliklar aminlar boshqaruvida birlashtirilgan.[12] Bu mahalliy ehtiyojlar va kuchli ta'sirga ega bo'lgan erlilarni rus hokimiyatiga bog'lab qo'yish zaruratidan kelib chiqib amalga oshirilgan edi. Bir nechta oqsoqolliklarni bitta oqsoqollikka birlashtirish okrug boshlig'ining roziligi bilan amalga oshirilgan.

Oqsoqollar va aminlar xalq tomonidan bo'lim boshliqlari eng maqbul deb topgan usullar bo'yicha saylanishgan. Oqsoqollar bo'lim boshliqlari, aminlar esa okrug boshlig'i tomonidan o'z vazifalariga tasdiqlanganlar.

1871 yildan boshlab Zarafshon okrugi Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlari va Tog'li tumanlar boshqarmasiga bo'lingan. Bo'limlar va Tog'li tumanlar boshqaruvi ta'minoti, sud va tibbiy qismlarni hisobga olmaganda, yiliga 40105 rublni tashkil etgan. SHundan 35100 r. davlat g'aznasidan, 305 r. mahalliy yig'imlardan, 2200 r. shahar tushumlaridan va 2500 r. jamoat mablag'laridan qoplangan.

Zarafshon okrugida mustamlaka ma'muriyat va aholi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda 1868 yilda okrugda faoliyat ko'rsatgan sud tizimini ko'rib chiqish nazariy va amaliy jihatdan ahamiyatga ega. CHunki, mazkur tizim Rossiya imperiyasi tomonidan yangi bosib olingan erlarda boshqaruvni tashkil etishdagi muhim bo'g'inlardan biri hisoblangan.

Sud tizimi ma'muriyat va mahalliy aholi o'rtasidagi munosabatlarning muhim bog'lovchi bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, u davlat ma'muriyatining siyosiy irodasi va qonunlarini hayotga tatbiq etuvchi vosita hisoblansa, ikkinchi tomondan, aholining huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan institut sifatida xizmat qiladi. SHu jihatdan sud tizimi ma'muriy tuzum bilan jamiyat orasidagi huquqiy muvozanatni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Sud tizimi ma'muriyat va aholi o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy shaklda ifodalanishi, tartibga solinishi va nazorat qilinishida markaziy o'rin tutgan. U bir vaqtning o'zida ham davlat hokimiyatining vositasi, ham aholining huquqiy murojaatlar maydoni sifatida ikki tomonlama vazifa bajargan.

Mustamlaka ma'muriyat va aholi o'rtasidagi munosabatlarda 1868 yildan boshlab okrug aholisidan undirilgan soliqlar, yig'imlar va ular tomonidan bajarilgan majburiyatlar muhim o'rin tutadi. Bu erda asosiy soliqlar davlat soliqlari bo'lib, ulardan asosiylari xiroj va tanob soliqlarini yig'ish uchun Zarafshon okrugi bo'limlari sarkorliklarga taqsimlangan. Mustamlaka boshqaruvning dastlabki yillarida okrug bo'limlarida sarkorliklarning soni va ularning o'lchamlari Buxoro amirligi davridagidek qoldirilgan. Sarkorliklarda xiroj va tanob soliqlarini to'plash bilan sarkorlar shug'ullangan. Ular aholi tomonidan bo'lim boshliqlari bu ish uchun eng maqbul deb topgan usullar bilan saylangan hamda o'z lavozimiga bo'lim boshliqlari tomonidan tasdiqlangan va bo'shatilgan. Sarkorlar xiroj va tanob soliqlarini to'plashda 1867 yilgi Nizom loyihasining 284, 285, 288, 289 va 290-moddalarida ko'zda tutilgan huquq va majburiyatlardan foydalanganlar.

Zarafshon okrugi bo'limlarida zakot ishlarini ko'rib chiqish uchun zakotchi lavozimi ta'sis etilgan bo'lib, bu lavozimga tayinlangan ma'murga butun bo'limda zakot yig'imini to'plash vazifasi topshirilgan va zakotchilar bo'lim boshlig'i tomonidan lavozimiga tayinlangan va bo'shatilgan.

Zarafshon okrugi tashkil etilgandan keyin dastlab mahalliy aholidan xiroj va tanob soliqlari olingan. Okrugda mahalliy aholidan 1868 yilgi hosildan ham soliqlar undirilib olingan. 17. Ushbu soliq ilgari bu soliqqa tortilgan hosildor erlardan hosilning 1/5 qismi hajmida Buxoro amirligi Tanob solig'i esa 1868 yilga qadar tanobga tortilgan hosildor erlardan Buxoro amirligi davrida undirilgan o'lchamlarda undiriladi;

Xiroj va tanob to'plash bo'yicha ro'yxatlarni tuzish uchun ma'lumotlar to'plash tartibi 1867 yilgi Nizom loyihasining 284, 285, 286, 287 va 288-moddalari bilan belgilanadi.

Agar qaysidir sarkor tomonidan to'plangan xiroj va tanobning miqdori ahamiyatli darajada bo'lsa, u okrug boshlig'i tomonidan pul mukofoti bilan taqdirlangan.[13] O'z navbatida 1687 yilgi Nizom loyihasining 292 va 293-moddalariga ko'ra Turkiston general gubernatori ham bo'limlar ma'muriyatda samarali xizmat qilib, imperiya xazinasiga ko'proq xiroj va tanob soliqlari tushumini tashkil qilgan mansabdorlarni mukofotlab turgan.

Zarafshon okrugi hududi orqali o'tadigan ruslardan boshqa barcha savdo karvonidan tavarining 2,5 foiz miqdorida zakot yig'imi undirilgan. Bunda zakot to'lagan savdogarga yil davomida 2,5 foizlik zakotga tortilgan mollar bilan bojsiz savdo qilishga yo'l qo'yilgan Sirdaryo okrugi hududida zakotga tortilgan savdo karvonlar Zarafshon okrugida zakot undiruvidan ozod etilgan.[14]

1867 yilgi Nizom loyihasining 319-moddasiga asosan zakot yig'imi asosan mahalliy savdogarlardan ikki vakil, xususan, rus amaldori ishtirokida amalga oshirilgan. Bunda zakotchi patta berish uchun bo'lim boshlig'idan ipga tortilgan kitob olgan. Uning har bir varag'i 1867 yilgi Nizom loyihasining 304-moddasida ko'rsatilganidek to'ldirilib borilgan.

Zarafshon okrugi zakotchilari tomonidan berilgan pattalar savdo karvon o'tib boradigan Sirdaryo viloyati shaharlari jamoat boshqaruvlari tomonidan, o'z navbatida xuddi shunday pattalari Zarafshon okrugi zakotchilari tomonidan tekshirilib turilgan. Agar undirilgan

zakotning miqdori savdo karvoni qiymatining 2,5 % dan kam chiqadigan bo'lsa, tekshiruvchi muassasa, ya'ni, zakotchi yoki jamoat boshqaruvi qo'shimcha zakot solig'ini undirgan. SHuni qayd qilish kerakki, xiroj va tanob undiruvdagi kabi imperiya g'aznasiga ko'proq tushumni tashkil qilgan zakotchi ham okrug boshlig'i tomonidan, bo'limlar ma'muriyatidagi mansabdor ham mukofotlanib turilgan.

Okrugdagi bo'lim boshliqlarining katta yordamchilari qolgan yig'implarni undirish bilan shug'illangan, katta yordamchilar esa oqsoqollardan foydalangan.

Zarafshon okrugida mahalliy aholi hiroj, tanob va zakot soliqlaridan tashqari Buxoro amirligi davrida amalda bo'lgan barcha to'lovlar pul yoki natura ko'rinishidagi yig'implarni to'lagan. Mustamlakachi ma'muriyat tomonidan amirlik davridagi yig'implar soni, miqdori va o'lchamlarini aniqlash uchun Samarqandda Zarafshon okrugi boshlig'ining o'zi, Kattaqo'rg'onda esa bo'lim boshlig'i raisligida komissiya tuzilib, Buxoro amirligi davridagi barcha yig'implar uzil-kesil aniqlashtirilgan va undirib olingan. Undiruvlar bo'yicha batafsil qaydlar va ikkala komissiyaning jurnallari Turkiston general-gubernatoriga jo'natilgan. Bundan tashqari mahalliy aholi yo'llaridagi ko'priklar, to'shamalar, qiyaliklar va qoplamalarni ta'mirlashga jalb qilingan, zaruratga qarab ulardan Zarafshon okrugi boshlig'i belgilangan narxda ot-aravalar ham olgan.

Daromadlarning kirimi va chiqimi, hisoblar va jo'natilgan pullari okrug boshlig'i taqdim qilgan har bir soliq va pul yig'implari uchun alohida ipga tortilgan kirim-chiqim kitoblari orqali yuritilib borilgan. Soliq va yig'implarning miqdori to'g'risidagi e'lonlar mahalliy tillarda, rus tilidagi tarjimasi bilan taqdim etilgan. Hisob-kitoblar Rossiya kumush tangasida, shuningdek Buxoro tangalari ham alohida qayd qilish orqali qabul qilingan.

Okrugda summalarning kirim-chiqimi bo'yicha hisob-kitob ishlari okrug hujjatxonasi ish yurituvchilaridan biri (buxgalter) tomonidan mavjud qoidalar va o'ta aniqlikka amal qilgan holda yuritilishiga jiddiy e'tibor qaratilgan.

Zarafshon okrugida soliqlar va yig'implar undirilgunga qadar harbiy-xalq boshqaruvi bo'yicha xizmatchilarning ta'minoti va boshqa xarajatlarga pullar dastlab Turkiston general-gubernatori ixtiyoridagi mablag'lardan, keyinchalik okrugdagi soliq va yig'implar tushumidan amalga oshirilgan.

Zarafshon okrugi boshlig'i uning Hujjatxonasida saqlanayotgan pullar har safar 20,000 r.dan oshgan taqdirda yig'ilib qolgan pullarni Sirdaryo viloyati G'aznachiligiga, Sirdaryo viloyat g'aznachiligi o'z navbatida Turkiston general-gubernatori hujjatxonasi nomiga kirim qilgan.

Bo'lim boshliqlari Zarafshon okrugi boshlig'iga har hafta naqd summalarning holati to'g'risida qisqacha qaydnomalarni, har oyning 5-sanasigacha barcha nomdagi daromadlarning batafsil qaydnomalarini yuborgan.

Zarafshon okrugi boshlig'i ham har hafta har bir bo'lim boshqaruvi va o'z Hujjatxonasida saqlanayotgan summalarning qisqacha qaydnomasini, har oyning 10-sanasigacha har bir bo'lim bo'yicha barcha nomdagi soliq va yig'implar bo'yicha to'plangan daromadlarning batafsil qaydnomasi Turkiston general-gubernatori Hujjatxonasiga taqdim etgan.[15]

Turkistonda xalq salomatligi va tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash, ularni o'qitish hamda sog'liqni saqlash sohasini nazorat qilish masalalari asrlar davomida shakllangan an'analar bo'yicha amalga oshirilgan. Mintaqani Rossiya imperiyasi bosib olgunga qadar sog'liqni saqlash sohasi davlat (amirlik va xonliklar) tomonidan nazorat qilingan. SHunday bo'lsa-da, aksariyat hollarda davolash jarayoni va tabiblarni bemorlar bilan muloqoti mustaqil/xususiy/erkin holda amalga oshirilgan.[16]

"Muvaqqat qoidalar"da tibbiyot qismining tuzilishiga oid alohida band kiritilgan

bo'lib, unga ko'ra okrugda tibbiy xizmat uchun har bir bo'limda alohida shifokor faoliyat yuritgan. Tibbiyot xodimlari etishmagan holatlarda batalon shifokorlaridan biri bu vazifani bajargan. Bo'lim shifokorlari okrugida joylashgan qo'shnlarning bosh shifokori ham hisoblangan okrug shifokoriga bo'ysungan.

Rossiya imperiyasi bosqinidan keyin joriy etilgan mustamlaka tibbiyoti turkistonliklar uchun katta yutuq sifatida talqin qilindi. Ammo, 19-yuzyillikning uchinchi choragidan boshlab mustamlaka hukumati tibbiy islohotlar nomi bilan olib borgan siyosat natijasida Turkiston o'lkasida qadimdan mavjud bo'lgan tibb bilimlari butkul o'zgardi. Ayniqsa, mustamlaka hukumatining hududni boshqarishda tibbiy sohadan qurol sifatida foydalanishi, yangi joriy etilgan xizmat turlari va muassasalarni milliy aholi manfaatlari uchun emas, balki birlamchi holatda, harbiylar hamda ularning oila a'zolari, ko'chib kelgan ruslar va davlat amaldorlarining ehtiyojlariga yo'naltirganligi tabaqalashgan tibbiy tizimni vujudga keltirdi. Turkiston general-gubernatorligida tibbiy xizmatlar asosan, harbiylar, amaldorlar va o'lkaga ko'chib kelgan evropalik aholi manfaatlari uchun yo'naltirildi.

Zarafshon okrugining Kattaqo'rg'on bo'limi misolida aytadigan bo'lsak, Turkiston general-gubernatori tomonidan 1871 yil 12 iyunda tasdiqlangan muvaqqat shtatlar loyihasidan ko'chiradagi ma'lumotlarga ko'ra Kattaqo'rg'on bo'limi bo'yicha shtatlarning ro'yxatida 1 nafar bo'lim shifokori, 1 nafar tibbiy yordamchi va 1 nafar Akusher (doya) qayd qilingan.[17]

1874 yilgi Zarafshon okrugi bo'yicha to'plangan geografik va statistik ma'lumotlarda Kattaqo'rg'on bo'limi 3 ta ma'muriy-hududiy birlik - Kattaqo'rg'on, Payshanba va Miton tumanlaridan iborat bo'lganligi, bo'lim aholisi 95 465 ekanligini hisobga olib aytish mumkinki, mustamlakachi imperiyaning tibbiy masalalari XIX asrning 80 yillarida faqat mustamlakachi ma'muriyat va ularning yaqinlariga xizmat qilgan degan xulosaga kelish mumkin.[18] Samarqand shahrida 1870 yilda ochilgan 50 o'rinli shifoxona rus aholisi uchun tashkil etilganligi ham buni tasdiqlaydi.[19]

1882-1884 yillarda Turkiston general gubernatorligida taftish o'tkazgan rus amaldori, senator Girs o'z hisobotlarida Zarafshon okrugida bo'limlarda jami 2 nafar shifokor, 2 nafar doya, 2 nafar tibbiy yordamchi va 2 nafar feldsherlar faoliyat yuritgani, ya'ni shifokorlar va akusherlar asosan shaharlarda to'planganini qayd qiladi.[20] Aytish mumkinki, Zarafshon okrugida 1868-1886 yillarda tibbiy masalalarda mahalliy aholi ehtiyoji umuman hisobga olinmagan.

1867-1883 yillarda harbiy tibbiy muassasalarning hisobiga Turkistonda asosan, harbiy shifokorlar ishlagan (ayollar va bolalarga xizmat ko'rsatgan xodimlar, yuqumli kasalliklarni o'rgangan ayrim shifokorlar bundan mustasno) hamda ular-dan tibbiy yordam olishda katta cheklovlar bo'lgan.

"18 yil davomida, ya'ni hududni zabt qilganimizdan keyin, bizning tibbiy ilmimiz mahalliy kasalliklarni davolashga oid vositalarni o'rganishda kerakli darajada muvaffaqiyatga erishmadi. Buning natijasida, mahalliy shifokorlar bilan raqobat qilishda zarur bo'lgan natijaga ega bo'lmadik. Ta'kidlash kerakki, bugunga qadar mahalliy hokimiyat tibbiyot xodimlarini xalq tibbiyoti va farmatsevtika fanlarini o'rganishga rag'batlantirishga harakat qilmadi" – deb takidlagi, Girs o'z hisobotlatida.

Keyinchalik uездlar va aholisi qo'proq bo'lgan shaharlarda uезд va shahar vrachlari hamda doya ayollar yoki feldsher-akusherlar birlashtirilgan. Ushbu xodimlar bosh harbiy tibbiy boshliq tomonidan shakllantirilgan, ishdan bo'shatilgan yoki qo'shib yuborilgan. Bosh harbiy tibbiy nozir nomzodi Turkiston general-gubernatorining birlamchi ma'qullashiga ko'ra tasdiqlangan. Vrach va feldsherlarga harbiy tibbiyot xodimlariga berilgan barcha imkoniyatlardan foydalanish huquqi berilgan bo'lib, harbiy tarkibdagi doyalarga berilgani kabi akusherlarga ham yordam puli va nafaqa puli belgilangan.

Aytish mumkinki, general-gubernatorlikdagi boshqarish bo'yicha birinchi dasturiy hujjatlarni ishlab chiqilishida "harbiy vaziyat" omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Buning oqibatida Turkiston o'lkasidagi tibbiy soha ham 1867-1917 yillar davomida Bosh harbiy tibbiyot boshqarma tasarrufiga berilgan.

Xulosa

1868–1886-yillarda Kattaqo'rg'on uezdida joriy etilgan boshqaruv tizimi Rossiya imperiyasi ning mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishga qaratilgan harbiy-ma'muriy tuzum sifatida shakllandi. Bu davrda hudud Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritilib, markazlashgan boshqaruv tizimi asosida idora qilindi. Uezd boshqaruvi imperiya tayinlagan amaldorlar qo'lida bo'lib, mahalliy boshqaruv organlari esa cheklangan vakolat doirasida faoliyat yuritdi.

Boshqaruv tizimining asosiy xususiyati kuchli nazorat, soliq siyosatining qat'iyligi va yer-suv munosabatlarining imperiya manfaatlari asosida tartibga solinishi bilan namoyon bo'ldi. Sud-huquq tizimida ham ikki yoqlama boshqaruv saqlanib qolgan bo'lsa-da, yakuniy nazorat mustamlaka ma'muriyati qo'lida bo'lgan. 1886-yilda qabul qilingan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom" esa mazkur tizimni huquqiy jihatdan mustahkamlab, ma'muriy markazlashuvni yanada kuchaytirdi. Natijada Kattaqo'rg'on uezdi imperiyaning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy tizimiga to'liq integratsiyalashdi.

Umuman olganda, 1868–1886-yillardagi boshqaruv tizimi Kattaqo'rg'on uezdida mustamlakachilik tartibining shakllanishi va mustahkamlanishida muhim bosqich bo'lib, mahalliy jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. История народов Узбекистана. Т.2. От образования государства Шейбанидов до Великой Октябрьской Социалистической революции. Под.ред. акад. С.В.Бахрушина и др. – Ташкент: Фан, С. 254
2. O'zMA, I-1-jamg'arma, 27- ro'yxat, 2-ish, 2-varaq
3. O'zMA, I-22-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-ish, 2-varaq orqa tomoni
4. Центральная Азия в составе Российской империи / С.Н. Абашин, Д.Ю. Арапов, Н.Е. Бекмаханова. – Москва: Новое литературное обозрение, 2008. С.96
5. O'zMA, I-22-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-ish, 3-varaq
6. Гирс Ф.К. Отчет ревизирующего по высочайшему повелению Туркестанский край тайного советника Ф.К. Гирса. – СПб.: Б.м., 1883. С.93
7. O'zMA, I-5-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1-ish, 22-23-varaq varaq
8. O'zMA, I-22-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-ish, 3-varaq orqa tomoni
9. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков. Из социально-экономической и политической истории средней части Зеравшанской долины: Учеб. Пособие. – Самарканд, 1970. С. 102
10. O'zMA, I-1-jamg'arma, 27- ro'yxat , 2-ish, 2-varaq
11. O'zMA, I-22-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-ish, 4- varaq
12. O'zMA, I-22-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-ish, 5-varaq
13. O'zMA, I-22-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-ish, 10 varaq
14. O'zMA, I-22-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-ish, 11 varaq
15. O'zMA, I-22-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-ish, 17 varaq
16. Jumanazatov X. Turkistonda tibbiyot tarixi (19-yuzyillik so'ngi – 20-yuzyillik boshi) Toshkent. Fan. 2024, 10-bet
17. O'zMA, I-22-jamg'arma, 1-ro'yxat, 15-ish, 13 varaq
18. Л.Н.Соболев. Географические и статистические сведения о Зеравшанском округе

с приложением списка населенных мест округа. Санкт-Петербург. тип. Имп. Акад. Наук. 1874, С. 123

19. Шадманова. С.Б. XIX аср охири XX аср боларида Туркистонда тиббиёт ва халқ таъбири. Тошкент. Фан. 2020. 111-бет

20. Отчет ревизующего, по Высочайшему повелению, Туркестанский край, тайного советника Гирса. СПб., 1884. С. 158